

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2018 yil 23.06

Ro'yxatga olingan



QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

FAN DASTURI

- Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
- Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
- Ta'lim yo'nalishlari: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi

TOSHKENT – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018__ yil 25.08 dagi 744-sonli buyrug'ining 6-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil 18.08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchi:

Jo'raqulov U. – ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrası доцент, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

B.Karimov – ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrası mudri

Qahramonov Q. – Til, adabiyot va folklor instituti etakchi ilmiy xodimi filologiya fanlari doktori, professor

Fanning o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-metodik kengashida tavsiya qilingan (2018-yil 05.07 dagi 13-sonli bayonnomasi).



I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Talaba-yoshlarning adabiy-estetik duiyoqarashini boyitish, ularda go'zallik tuyg'ularini qaror toptirish davrimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda Sharq va G'arb adabiyotining o'zaro ta'siri va aloqalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, o'zlikni anglash, o'z tarixini mukammal o'rganish davr taqozosi. Ming yillik tariximizning guvohlik berishicha, qadimgi Sharq G'arb madaniyati, ilm-fanining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Jumladan, G'arb madaniyati, falsafasi, ma'naviyatining shakllanishida bizning ulug' ajdodlarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning ta'siri benihoya katta bo'lgan.

Qiyosiy adabiyotshunoslik fani talabalarni jahon adabiyoti va adabiyotshunosligining umumiy va xususiy tomonlarini qiyosiy jihatdan o'rganishga tayyorlaydi va o'zbek adabiyotining ilg'or tomonlarini targ'ib, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy, adabiy aloqalar qadimdan mavjud. Bunday aloqalar tufayli adabiy hayotda bir xalqning adabiyoti ikkinchisini to'ldirib kelgan. Ushbu jarayonni o'rganish orqali adabiyot tarixi, nazariyasi bilan bog'liq muhim xulosalar chiqarish mumkin.

"Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining predmeti, obyekti, maqsadi, ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni **bilishi kerak;**

- badiiy asarga estetik baho berish, jahon xalqlari adabiyoti durdonalarini, jumladan, Sharq va G'arb adabiyoti namunalarni taqqoslash, baholash kabi **bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;**

- badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qila bilish **malakasiga ega bo'lishi kerak.**

Jahonning turli xalqlari adabiyotiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar, ularning boshqa xalqlar adabiyotiga ta'siri, turli xalqlarning jahon adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasini ilmiylik asosida baholash ko'nikmalarini hosil qilishi zarur.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Ma'ruza mashg'ulotlari

1-modul. Qiyosiy adabiyotshunoslikning nazariya masalalari

“Qiyosiy adabiyotshunoslik” fani predmeti va mazmuni

Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida. Shakllanish tarixi. Metodologik omillari. A.N.Veselovskiy, V.M.Jumunskiy, N.A.Konradning qiyosiy adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining predmeti: adabiy-estetik, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy manbalar, ularga oid tadqiqotlar. O'zbek adabiyotshunosligida qiyosiy metod, masalalari: komparativistika, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik. Qiyosiy adabiyotshunoslik va gumanitar fanlar. Mazkur fanning folklorshunoslik, mumtoz poetika, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid tarixi va nazariyasi bilan uzviy bog'liqligi.

Sharq va g'arb adabiyoti: davrlar, adabiy-estetik qarashlar, adabiy oqimlar, adabiy siymolar, adabiy-estetik manbalar, poetik komponentlar tipologiyasi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda sinkretizm masalasi

Sinkretizm qiyosiy adabiyotshunoslikning nazariy asosi sifatida. Sinkretizm nazariyasi: kashf etilishi, tarixiy-madaniy asoslari, ilmiy-nazariy kriteriyalari. Sinkretizmning tarixiy tadrij bosqichlari: din, mif, adabiyot sinkretizmi.

Ilohiy kitoblar va mifologik tafakkur masalasi

“Zabur”, “Tavrot”, “Injil”, “Qur'oni karim”da olam, odam, ibtido, intih, abadiy hayot, zohir va botin masalalari talqini. Ilohiy axborotlar germinenivtikasi: sharh, talqin, tadqiq xilma-xilliklari. Mif va uning manbalari. Shumer, Hind, Misr, Xitoy, O'rta Osiy va Eron, antik Yunon mifologiyasi: ilohiy kitoblar bilan munosabati, badiiy, tarixiy, falsafiy, psixologik omillari. Ichki tipologik xususiyatlari.

Sharq va G'arb eposi tipologiyasi.

“Bilgamish”, “Ramayana”, “Mahobhorat”, “Iliada”, “Odisseya”, “Alpomish” eposlari: syujet, motiv, obraz va epik tasvir tipologiyasi. “Shohnoma”ning epos emasligi. Asar “Eron shohlari solnomalari”ning badiiylashtirilgan shakli sifatida. Asarda kompanyativlik, ilk klassitsizm, konseptual mahdudlik muammolari.

Eng qadimgi drama qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida.

Teatr san'ati paydo bo'lish tarixi, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, to'qnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrlarida ovehilik, mehnat va diniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhlariga sig'inish bilan bog'liq holda shakllanishi. Yunoniston, Hindiston, Turonda mil. av. 5-asrlarda teatrlarning jamiyat hayotida tutgan o'ri. Sharq va G'arb teatrlarining o'xshash hamda farqli jihatlari. Markaziy Osiyoda tomosha san'ati. Yevropa usulidagi teatrlarning Sharq mamlakatlariga tarqalishi.

Qadimgi davr jahon lirikasining tipologik xususiyatlari.

Lirika so'zining etimologiyasi. Qadim Yunonistonda lirik she'riyatning musiqa, raqs va san'atning boshqa turlari bilan bog'liqligi. Sharq lirikasining ilk omillari: xalq baxshilarining she'rii cholg'u jo'rligida kuylab aytishi. Sharq va G'arb adabiyotidagi lirik janrlar. O'zaro aloqalar natijasida vujudga kelgan lirik janrlar. XX asr she'riyati. Yangi o'zbek she'riyatida g'arbone unsurlar.

2-modul. Sharq va G'arb badiiy tafakkuri qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida

Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sinolarning adabiy-estetik qarashlari qiyosi.

Platon va Aristotelning adabiy qarashlari. Aristotelning “Poetika” asari. Forobiyning «She'r va qofiyalar haqida so'z», «Ritorika haqida kitob», «She'r kitobi», «Shoirilar san'ati qonunlari haqida» asarlarida badiiy san'atlar haqida bildirilgan fikrlar. Forobiyning yunon va arab adabiyoti haqidagi fikrlari. Ibn Sinoning adabiy qarashlari shakllanishida Aristotel va Forobiyning ta'siri.

G'arb va Sharq adabiyotida o'rta asrlar masalasi.

O'rta asr istilohi. Uning xronologiya prinsipiga asoslanmasligi. Sharq va g'arb adabiyotig'ish o'rta asri: etik asos, estetik konsepsiya, badiiy shakl va mazmun, xronologiya jihatidan umumiy va xususiy tomonlari. Sharq va g'arb o'rta asrlar adabiyoti: janr, syujet, obraz. Bu adabiyotlarda inson konsepsiyasi.

Sharq va g'arb Renessans adabiyotini qiyosiy o'rganish

Sharq va arab Uyg'onish adabiyotining konseptual o'xshashliklari va farqlari, xronologik chegaralari, ma'rifiy, falsafiy, adabiy-estetik omillari. Sharq va g'arb Renessansida o'zaro ta'sir masalasi. Italyan, ingliz, ispan, fransuz, nemis adabiyotida arab, eron, turkiy adabiyot an'analari namoyon bo'lishi. Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oni, Sanoe Balxiy, Abu a'lo al-Ma'arriy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Amir Temur, Nizomiy, Navoiy va g'arb adabiyotining Dante, Shekspir, Marlo, Gyote singari genial ijodkorlari o'rtasidagi tipologik jihatlarni yangicha o'rganish tamoyillari.

Uyg'onish davri badiiy tafakkuri tipologiyasi.

Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va Dante filologik merosi aro mushtarak xususiyatlar. Shekspir va Gyote sharq-islom adabiyotining sodiq muxlislari sifatida. Shekspir va Gyote ijodida sharq-islom syujetlari va obrazlari. K.Marlo ijodida Amir Temur obrazi. G'arb xalqlari og'zaki va yozma ijodida Aleksandr mavzusi: "Iskandar haqida roman". Roman an'analari. Xamsanavislar ijodida Iskandar obrazi: Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi talqini.

Sharq va g'arb klassitsizmi: umumiylik va xususiylik.

Klassitsizm umuminsoniy hodisa sifatida. Klasitsizmning falsafiy asoslari. Klassitsizm psixologik hodisa sifatida: namunaga taqlid masalasi. G'arb va sharq klassitsizmining umumiy xususiyatlari. Sharq klassitsizmining XVII asr yevropa klassitsizmidan tom ma'noda farq qilishi. G'arb klassitsizmining ijtimoiy zarurati. Falsafiy va badiiy asoslarining maxsus ishlab chiqilganligi. Klassitsizm falsafasi va g'arb sivilizatsiyasi: madaniy millat, madaniyatli odam konsepsiyasi. Klassitsizm adabiyoti va nazariyasi. Bualo, Kornel, Moler, Rasin g'arb klassitsizmining tipik vakillari sifatida. Klassitsizm va plagiatizm.

Sharq va g'arb ma'rifatchiligi tipologiyasi: fransuz va jadid ma'rifatchiligi.

G'arb adabiyotida fransuz, ingliz va nemis ma'rifatchiligi. Ularning umumiy va farqli jihatlari. Ma'rifatchilik g'oyalarining adabiyotda aks etishi. Yevropa ma'rifatchiligi va jadid adabiyoti: mavzular, janrlar, g'oyalar, obrazlar tipologiyasi. Gyote, Russo, Volter, Didro, Defolarning ijodiy prinsiplari. Jadid ma'rifatchiligi: Behbudiy, Fitrat, Avloniyalar ijodi.

Sharq va g'arb badiiy tafakkurida sentimentalizm, romantizm, naturalizm, realizm.

Sentimental falsafa va adabiyot. Sharq va g'arb sentimentalizmining umumiy jihatlari. G'arb sentimentalizmi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida. Lotens Stren va g'arb sentimentalizmi. Sharq va g'arb romantizmining estetik mohiyatga ko'ra farqlari va ba'zi umumiyliklari. Yevropada sharq romantizmi tushunchasi, bu tushunchalardagi xoto va noxolishlar. Mumtoz sharq adabiyotida romantizm. G'arb romantizmining XIX asr yevropa xalqlari madaniyati maxsuli ekanligi. G'arb romantizmining ijtimoiy va psixologik tabiati. Sharq va g'arb adabiyotida naturalizm va realizm estetikasi: poetik tamoyillari, bosqichlari va estetik shakllari. Naturalizm va realizm adabiyoti aro umumiy va farqli jihatlari. Ularning sharq va g'arb adabiyotida tutgan o'rni.

XIX-XX asrlar Yevropa romanchiligi va Sharq zamonaviy nasri.

Roman janrining shakllanishi. Yevropa romanchiligi. Milliy adabiyotlarda roman janriga intilishning kuchayishi. Daniel Defo, P. Beranje, Stendal, P. Merime, Balzak va Charlz Dikenslar ijodida jamiyat va shaxs muammolarining badiiy talqini. XX asr birinchi yarmi Yevropa va AQSh tanqidiy realizm adabiyoti. Gi de Mopassan tanqidiy realizmi. Nemis adiblari Tomas Mann, Bernard Shoular ijodida realist talqin tamoyillari. Sharqda Mustafu Kamol, Jurji Zaydon, Abdulla Qodiriy va boshqa adiblarning milliy romanchilikni rivojlantirish borasidagi intilishlari.

Yevropa modernizmi va XX asr yangi o'zbek adabiyoti

Modernizm, modern, jadid, yangi tushunchalari, istilohiy mohiyati. Yangilik, yangilanish jahon adabiyoti taraqqiyotining muhim sharti ekanligi. Uning hamma zamon va makonlar uchun xosligi. Modernizm adabiyoti xususidagi bahslar: fransuz, rus, o'zbek adabiyotshunoslari asarlari misolida. Yevropa modernizmi va yangi o'zbek adabiyoti vakillari: J.Joys, F.Kafka, A.Kamiyu, N.Eshonqul, Sh.Hamro, T.Rustamovlar asarlarining qiyosiy tahlili. Modernizm she'riyati. O'zbek she'riyatida shakl yangilanishlari. Rassomlik, teatr va kino san'atlarida modernizm ko'rinishlari. Jahon adabiyotida postmodernizm tushunchasi.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha

ko'rsatma va tavsiyalar

"Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanidan amaliy mashg'ulot mavzulari talabalarni fanga ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan mustaqil tanishishga hamda jahon

xalqlari adabiyotining mumtoz namunalari g'oyaviy badiiy, qiyosiy, psixologik va nazariy jihatdan tahlil qilishga yo'naltiradi.

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Bilgamiş" va jahon xalqlari eposi.
2. "Iliada", "Maxabxarata" eposlari tipologiyasi.
3. "Romayana", "Odisseya" va "Alpomish" asarlarining qiyosiy tahlili.
4. Dante va navoiy masalasi.
5. Gyote ijodida sharq motivlari.
6. Volter, Russo va jadid ma'rifatchilari asarlari qiyosi.
7. Jahon nasri va Qodiriy romanchiligi.
8. Jek London va Abdulla Qahhor.
9. Markes va yangi o'zbek nasri.
10. J. Joys va T. Rustamov romani.
11. O'zbek she'riyatida Lorka an'analari.

V. Mustaqil ishini tashkil etishning shakli va mazmuni:

Seminar mashg'uloti mavzulari fanning asosiy masalalariga daxldor bo'lib, ular talabalarning muayyan mavzular doirasidagi badiiy va nazariy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, mulohaza va mushohada yuritish, tahlil qilish, muhim xulosalar chiqarish yo'lida malaka va ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan.

1. Sikretizm tushunchasi va uning o'rganilishi.
2. Jahon adabiyotini qiyosiy-tarixiy o'rganish va A.N.Veselovskiy tadqiqotlari.
3. Mifologiya: sharq va g'arb adabiyotidagi umumiy va farqli jihatlari.
4. Epos nazariyasi qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida.
5. Uyg'onish adabiyotining umumnazariy muammolari.
6. Klassitsizm va sentimentalizm sharq va g'arb adabiyoti kontekstida.
7. Sharq va g'arb ma'rifatchilik adabiyoti: dramatik asarlar tipologiyasi.
8. Sharq va g'arb realizmi: oliy realizm, tanqidiy realizm va sosrealizm masalasi.
9. G'arb va yangi o'zbek adabiyotida modernizm muammosi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. Т.: Ўзбекистон, 1997 й.
2. Каюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. Т. Ўқитувчи, 1979 й.
3. Болтабоев Ҳ., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. (1-жилд: Қадимги давр). – Т.: "МУМТОЗ СЎЗ", 2015.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2018 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 16 январь, №11.
2. Алексеев М.П. и др. История зарубежной литературы. (Средние века и возрождение) М., «Высшая школа», 1987.
3. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. –М.: 1989.
4. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси. – Т.: Академнashr, 2015.
5. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Т.: Университет, 2003.
6. Жўрақулов У. Худудсиз жинга. – Т.: Фан, 2006.
7. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Ф.Гулом, 2015.
8. Жалилов С. Бобир ва Юлий Цезарь. Т.: «Янги аср авлоди», 2001.
9. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. –Л. 1979
10. История всемирной литературы. Т., 1-7. М., «Наука», 1983-1990.
11. История зарубежной литературы XX века. (1917-1945) М., «Высшая школа», 1980.
12. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. – Т., "Маънавият", 2008.
13. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. – Т.: "Академия", 2004
14. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. Т., Фан, 1978.
15. Хўжаева Р.У. Янги давр араб адабиёти тарихи. (Ўқув қўлланма) I қисм. Т., 2004.
16. Ярхо В.Н. Английская драма. Технология. Мастерство. – М.: «Высшая школа», 1990.
17. Ярхо В.Н. Трагедия Софокла «Антигона». – М.: «Высшая школа», 1986.

4. Куронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т.: “Фан”, 2008.
5. Қамбарова Д. Қуръон бадиётган илҳом (Пушкин ижодида Қуръон оҳанглари). – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-мағбаа бирлашмаси, 2009.
6. Кодиров М., Ўзбек театри тарихи. Т., 2003

Бадний адабиётлар

1. “Алпомиш”-Т.: “Шарк”, 1998
2. Гёте И.В. Ғарбу Шарк девони. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
3. Гомер. Илиада. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
4. Данте Алигъери. Илохий комедия. Т., 1975.
5. Панчатантра... – Т.: “Чўлпон”, 1993.
6. Рамаёна Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
7. Калпила ва Димна. Т. “Чўлпон”, 2006
8. Фирдавсий А. Шохнома. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
9. Шекспир Вильям. Сайланма. Уч жилдлик. – Т.: “Фан”, 2007.
10. Шекспир, Вильям. Сонетлар. Т., “Янги аср авлоди”, 2009.
11. Юзини йўқотган одам. Янги новеллалари. Рус тилидан Узок Журакулов таржимаси.-Т.: Мухаррир, 2008.
12. Қосимов А. СИРЛАР (Озод этилган Прометей) // Эй, қаро кўзим. – Т.: “ТАФАККУР”, 2011,105-127-бетлар.

Internet saytlari

1. www.ziyounet.uz
2. www.edu.uz
3. www.ozbek-adabiyoti.com.
4. www.zivo.uz
5. [www. Lib.ru](http://www.Lib.ru).
6. www.litera.ru.
7. www.Philologs.narod.ru.